

TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING IJODIY-AMALIY FAOLIYATGA YO'NALTIRISHNING TASHKILIY JIHATLARI

To'xtayeva Zebo Sharifovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

“Paxta va yengil sanoat texnologiyaslari” fakulteti dekani,

pedagogika fanlari doktori, professor,

zebo-7171@mail.ru

Muxamadiyeva Ruxsora Abboskulovna –

Osiyo Xalqaro Universiteti MM8-PP-22 guruh magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarning ijodiy-amaliy faoliyatga yo'naltirish jarayonini motivatsion ta'lim sharoitida tashkil qilishning hamda motivatsion ta'lim muhitini yaratishda pedagogik ijodkorlikning ahamiyati, o'qituvchining kasbiy faoliyatining tarkibiy qismlari, o'quv motivlari mohiyati va uning o'ziga xos jihatlari kabi masalalar tahlili bayon qilingan*

***Tayanch iboralar:** ta'lim jarayoni, ijodiy-amaliy faoliyat, ijodkor o'qituvchi, pedagog, kasbiy faoliyat, o'quv motivi, motivatsion ta'lim muhiti.*

ORGANIZATIONAL ASPECTS OF DIRECTING STUDENTS OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS TO CREATIVE-PRACTICAL ACTIVITY

***Annotation.** In this article, the importance of pedagogical creativity in organizing the process of directing students to creative and practical activities in the conditions of motivational education and creating a motivational educational environment, the components of the teacher's professional activity, the essence of educational motives and its specific aspects the analysis of issues is described*

***Key words:** educational process, creative-practical activity, creative teacher, pedagogue, professional activity, educational motive, motivational educational environment.*

Talabalarning ijodiy-amaliy faoliyati maxsus psixologik, pedagogik test o'tkazish orqali aniqlanadi. Ular maqsadga intilish, qat'iylik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarini hamda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish istagi bilan ajralib turadilar va ilimning tegishli sohalari, fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish, rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun

imkoniyatlar yaratishdir. Ijodiy fikrlashni aniqlash uchun psixologik vositalar mavjud. Jahon psixologik amaliyotida eng mashhuri Pol Torrens testidir. Ushbu test quyidagilarni baholashga imkon beradi:

- og‘zaki ijodiy-amaliy faoliyat ;
- obrazli ijodiy-amaliy faoliyat ;
- individual ijodiy qobiliyatlar.

Ijodiy-amaliy faoliyat mezonlari:

- ravonlik - vaqt birligida yuzaga keladigan g‘oyalarning soni;
- o‘ziga xoslik - umumiy qabul qilinganlardan farq qiladigan g‘ayrioddiy g‘oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;
- moslashuvchanlik.

Talabalarning ijodiy-amaliy faoliyatini rivojlantirishda maqsadli tayyorlash bo‘yicha quyidagi vazifalarga amal qilinishi lozim:

– talabalarning intellektual salohiyati chuqur bilim olishga va qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish;

– malakali professor - o‘qituvchilarni talabalar bilan individuval ishlashga jalb etish;

– ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlariga talabalarni jalb etish;

– maxsus o‘quv dasturlari va progressiv pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish;

– ijtimoiy buyurtmachilar talabalarini qondiruvchi malakali, har tomonlama kamol topgan kadrlarni tayyorlash.

Shunday qilib, talabalar bilan ishlashning ijobiy tomonlari va kamchiliklarini hisobga olib, keyingi monitoringini kuchaytirish bo‘yicha o‘tkaziladigan ishlar rejasi tuzib chiqilishi, talabalar faoliyat jarayonini nazorat qilishni kuchaytirish, talabalar kontingenti izchilligini oshirish uchun yagona bazani shakllantirish, iqtidorli talabalarni turli xil xalqaro grant loyihalarida ishtirok etishlari va malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Kasbiy faoliyat ijodiy-amaliy faoliyat bilan bog‘liq, ya‘ni muammolarni kreativ hamda kognitiv yo‘l bilan hal qilish yoki yangi mahsulotni yaratish demakdir. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

– yangi tovarlar ishlab chiqarish yoki turli xizmatlarni taqdim etishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati;

– muhandislik faoliyati (yangi texnik vositalarni loyihalash);

– boshqaruv faoliyati (tashkiliy qarorlarni tayyorlash va qabul qilish, odamlarni boshqarish);

– dizaynerlik ishi (badiiy dizayn) va boshqalar.

Uzluksiz ta'lim tizimida axborot texnologiyalari bilan zamonaviy pedagogik texnologiyani birgalikda ta'lim jarayoniga tatbiq etish o'qitish jarayonida juda yaxshi samara beradi.

Jumladan, web-quest ta'lim texnologiyasi ijodiy-amaliy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- faol mustaqil yoki guruh qidiruv faoliyatini tashkil etish;
- talabaning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashish;
- o'quv jarayoni uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali, diqqatni jamlashga, faoliyat shakllarini o'zgartirishga yordam berish;
- global tarmoqdan ko'plab manbalarni tahlil qilishga va ularni umumlashmalar orqali ma'lumotlarni bir butunlikka keltirishga o'rgatadi;
- talabaning kognitiv qobiliyatini rivojlantiradi;
- umumiy ta'lim ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi (tahlil, sintez, maqsadni belgilash, ma'lumotlarni qidirish, bilimlarni tizimlashtirish va boshqalar);
- ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi;
- ta'limga individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi;
- mustaqil baholash hamda qaror qabul qilish, qo'shma faoliyatning borishi va natijalarini prognozlash, nazorat qilish, tuzatish asosida umumiy maqsadlarni belgilash, umumiy ish usullarini rejalashtirish va samarali hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlaydi.

Shuningdek, talaba o'qituvchi va tengdoshlari bilan o'quv jarayonining teng huquqli ishtirokchisiga aylanadi. "Web-quest" texnologiyasi yordamida talabalarning o'zlari materialni o'rganish tezligini, ish sur'atini nazorat qilishlari mumkin, bu o'zini-o'zi nazorat qilish va boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

"Web-quest" – bu talabalar Internet yordamida amalga oshirishi mumkin bo'lgan qidiruv faoliyatining maxsus turi.

Web (ingliz tilidan) so'zi – tarmoq.

Quest (ingliz tilidan) so'zi – tadqiqot, qidirish.

Shuning uchun Web - Questni ingliz tilidan – internetdagi qidiruvlar, deb tarjima qilish mumkin.

Xususan, "veb-qidiruv" texnologiyasi talabalarni axborot va internetga bo'lgan munosabatini o'zgartirib, buni ta'lim faoliyatiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkonini beradi, alohida mavzu (predmetli) va (metapredmetli, ya'ni fanning rivojlantiruvchi va o'quv-didaktik jihati orqali inson kamolotga etuvchi xarakterli xususiyati bo'lib hisoblanadi) natijalariga erishishga yordam beradi. Ushbu

texnologiya ijodiy-amaliy faoliyat ni shakllantirishda quyidagi muhim ta'lim natijalariga erishish imkonini beradi:

– shaxsiy, ya'ni narsalarni o'rganish va o'z-o'zini takomillashtirish, anglash imkoniyatlarini tushunish, ijodiy salohiyatni ochib berish motivatsiyasini shakllantirish;

– metasubject (metapredmetli) – kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, axborot bilan ishlash ko'nikmalari (ma'lumotni qidirish, tanlash, umumlashtirish, muammoni hal qiladigan loyihani yaratish);

– mavzu (predmetli) – yangi bilimlarni egallash va uni o'quv vaziyatlarida qo'llash, fikrlashning ilmiy – texnik turini shakllantirish.

Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'qitishning interfaol metodlari yordamida mustaqil ta'lim olishni yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi. Talabalar bilimni har xil turdagi mashg'ulotlar bo'yicha xolisona baholash mezonlari, tanqidiy fikrlash hamda ijodni rivojlantirish, interfaol ta'lim bo'yicha metodik ishlanmalarni yaratish zamon talabidir. Zamonaviy ishlab chiqarish va uni boshqarish jarayonlari talablaridan kelib chiqib zamonaviy axborot texnologiyalari ikki guruhga bo'linadi. Ularning birinchisi matn protsessorlari, elektron jadvallar, ma'lumotlar jamlanmasi, grafik muharrirlar, multimedia, telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan bo'lib, "Universal tipdagi axborot texnologiyalari" deb ataladi.

"Maxsus axborot texnologiyalari" deb nomlanuvchi ikkinchi yo'nalishga ma'lum bir ixtisoslashgan yo'nalishdagi faoliyatni amalga oshirishda foydalaniluvchi kompyuterli texnologiyalar, misol uchun o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari kiradi. O'qitishning yangi axborot texnologiyalari har qanday ta'lim texnologiyasining asosiy qismi bo'lgan bilim berish va uni qabul qilish jarayonlarini kompyuterlashtirish natijasida vujudga kelgan o'qitish texnologiyasi bo'lib, o'qituvchi undan o'qitishning ijodiy vositasi sifatida foydalanadi, darsga tayyorlanadi va uni tashkil qiladi, talabalar bilimni nazorat qiladi hamda ularga vazifalar beradi. Hozirgi kundagi va yaqin kelajagimizdagi ta'lim tizimini takomillashtirishda kompyuterlashtirishning eng asosiy vazifasi – o'qitishning yangi zamonaviy axborot texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim jarayoniga olib kirishdan iborat bo'ladi. O'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta'lim tizimida foydalanishning samaradorligi quyidagi holatlar bilan belgilanadi:

1. O'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari talabalarga axborotlarning noan'anaviy manbalariga murojaat qilish imkoniyatlarini ochib beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

2. O'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari qo'yilgan didaktik maqsadlarni amalga oshirishi uchun o'qituvchiga o'qitishning turli shakllaridan va

ularning majmuasidan foydanish, ya'ni zaruriy ta'lim muhitini barpo etish imkonini beradi. O'qitishning yangi axborot texnologiyalaridan foydanishda o'qituvchi kompyuterlashtirilgan o'qitish va nazorat qilish dasturlarini sharoitdan kelib chiqib o'zgartirish imkoniga ega bo'ladi.

3. O'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'qituvchilar talaba shaxsini rivojlantirish, ijodiy fikrlashga o'rgatish, o'quv dasturlarining eng maqbullarini tanlash yoki yangilarini yaratish uchun qo'shimcha imkoniyatga ega bo'ladi.

4. Avtomatlashtirilgan o'quv-axborot tizimidan foydalanishga asoslangan o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash natijasida o'qituvchilar o'zlarining axborot bilan ta'minlanganlik darajalarini oshiribgina qolmay, balki deyarli butun dunyodagi axborot jamlamalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalari bugungi kunda ta'lim tizimiga keng kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalarning vositaviy asosi hisoblanadi. Shu sababli biz o'z tadqiqotlarimizda o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llashda pedagogik texnologiyaning quyidagi tamoyillariga amal qildik.

Ilmiy-ijodiy-amaliy faoliyatni rivojlantirishda fundamental tadqiqotlar asosiy o'rinni egallaydi. Aynan ular orqali istiqbolli ilmiy echimlarni ishlab chiqish uchun asos bo'luvchi ilmiy potensialni yuzaga keltiradi. Ko'p holatlarda fundamental tadqiqotlar, uning yakuniy natijalari ilmiy kashfiyot bilan yakunlanadi.

Ilmiy-amaliy hamda pedagogik-psixologik adabiyotlarda ixtirochilik hamda ixtirochilik ijodkorligiga ko'plab ta'riflar keltirilgan. Jumladan, I.I.Kichkin ixtirochilikni ilmiy g'oyalarining texnik echimlarga ijodiy tatbiq, ilmiy texnika taraqqiyoti sur'atlarini belgilovchi asosiy ko'rsatkich, yangi texnika va texnologiyalar yaratilishining mezoni hamda uning yuqori ilmiy-texnik darajasini ta'minlovchi omil deb hisoblaydi. M.A.Vachevskiy "ixtiro qilish"ni "qo'yilgan masalani echish uchun eskilaridan tubdan farq qiluvchi, odatdagi mantiqiy fikrlash yo'li bilan yetishib bo'lmaydigan yangi samarali yechimni taklif qilish" deb ta'riflaydi [108;49-b]. Bizning fikrimizcha, ixtirochilik tegishli idoralar tomonidan patentlar bilan tasdiqlanadigan yangi yechimni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ijodiy faoliyat turi, ixtirochilik ijodkorligi esa bu jarayonning shaxsdagi kreativlik, zehnlilik, topqirlik, mustaqil va tanqidiy fikrlash kabi ijodiy-amaliy faoliyat sifatleri bilan bog'liq umumiy tavsif deyish mumkin.

Ratsionalizatorlik ko'p qirrali muammo bo'lib, ko'proq iqtisodiy masalalarni hal etishga qaratilgan. Ratsionalizatorlik fikrlari ma'lum talablarga javob berishi kerak:

birinchidan, texnik yechimga ega bo'lishi;

ikkinchidan, yangilik bo'lishi;

uchinchidan, foydali bo'lishi kerak.

Ilmiy-amaliy taraqqiyotning o'sishi ko'p va murakkab bilimlar hamda axborotlarga bog'liq. Iqtisodiyotning barcha sohalari bo'yicha har yili yangiliklar soni bir qancha ko'payadi. Zarur bo'lgan axborotlarni yig'ish -juda murakkab ish. Shuning uchun hozirgi kunda tabiatni bilishga oid bilimlardan tashqari, bu bilimlardan insonning o'zi foydalanishi katta ahamiyatga ega. Hozirgi davrda kashf etilgan yangiliklar bo'yicha axborotlarni saqlash, ishlov berish va xodimlarga yetkazish yo'llari qidirilmoqda, har bir davlatda ilmiy-amaliy axborotlar bo'yicha maxsus tashkilotlar tuzilgan, ular fan, texnika va ishlab chiqarishni rivojlantirishga omil bo'lib xizmat qiladi.

Professional ta'limda ixtirochilik g'oyasini ishlab chiqishda ijodkor talabalarning bilimlar bankidan foydalanishi izlanishning samaradorligini oshiradi. Bilimlar banki – ma'lum vazifani bajaruvchi ob'ekt sinfiga oid bo'lgan va ishlash mezonlari, ketma-ketligiga ko'ra tizimlangan, uzluksiz ravishda boyitib boriladigan axborot va ma'lumotlar majmui sifatida ishlab chiqiladi. Bunda beriladigan ma'lumotlar imkon darajasida qisqa va lo'nda ifodalanib, tegishli bo'limlarga joylashtirilganligi sababli axborot jamlamalarining juda ixcham bo'lishiga erishiladi. Bilimlar bankining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning uzluksiz ravishda yangi ma'lumotlar bilan boyib borishidir. Bu vazifani amalga oshirishda ikki usuldan foydalaniladi: birinchi holatda o'qituvchi o'z ustida qo'shimcha ishlashi natijasida olgan yangi bilimlarini doimiy ravishda bilimlar bankiga kiritib boradi. Ikkinchi holatda talaba tomonidan taklif qilingan axborot o'qituvchi tomonidan tahrir qilinadi va bilimlar bankiga kiritiladi.

Professional ta'limda ijodiy-amaliy faoliyat samaradorligi tobora ko'proq darajada axborotlar bilan ishlash tezligi va unumdorligiga bog'liq bo'lib borayotganligini hisobga olib, bilimlar bankini ishlab chiqishda quyidagi mezonlarga amal qilinadi:

1. Axborotlarni jamlash. Katta hajmdagi axborotlar ichidan samarali texnika va texnologiyalarni ishlab chiqishning istiqbolli yo'nalishlari haqida xulosa chiqarish uchun eng yangi axborotlardan to'laroq foydalanish.

2. Axborotlarni saralash va eng ahamiyatlilarini ajratib olish. Saralangan axborotlar bilan ishlash ijodiy yechimni ishlab chiqish uchun sarflanadigan vaqtni tejaydi va uning yuqori ijodiy-amaliy saviyada bo'lishiga xizmat qiladi.

3. Ahamiyatli axborotlarni tasniflash – har bir ma'lum holat uchun tahlil qilinishi lozim bo'lgan axborotlar hajmini kamaytirish va qiyosiy tahlilni amalga oshirishda zarur axborotlarni topish tezligini oshirish uchun xizmat qiladi.

4. Axborotlarni tabaqalash. Axborotlarni samarali texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish nuqtai nazaridan tabaqalash, ularning tahlilini tadqiqotning har bosqichida eng qimmatli ma'lumotlardan boshlash imkonini beradi.

5. Tasniflangan axborotlarni tizimlash. Tarqoq holdagi aralash dalillarni tahlil qilishdan ko'ra muammoning umumlashgan ko'rinishi bilan ishlash texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish hamda foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

6. Tizimlangan axborotlarning ko'rgazmaliligini oshirish, ya'ni matn holdagi axborotlardan turli ko'rinishdagi grafik tasvirlarga o'tish. Bunda yangi, samarali texnika va texnologiyalar ishlab chiqish bilan shug'ullanayotgan barcha talabalar uchun axborotlar majmuasidan foydalanish imkoniyati ortadi.

7. Axborotlardan kompyuterlar yordamida foydalanish. Ixtirochilik faoliyatida tahlil qilinishi lozim bo'lgan axborotlar hajmi ortib borayotganligi – tadqiqotchilar aqliy mehnatini engillashtirishda zamonaviy axborot texnikalaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

Talabalar ijodiy-amaliy faoliyatini shakllantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanilishi to'g'risidagi fikrlarimizni quyidagicha xulosalaymiz:

kompyuter talabani ixtiro g'oyasi va yechimi yuzasidan qaror qabul qilishida axborotlar bilan ta'minlaydi va hisoblash ishlarini bajaradi, murakkab holatlarda aqliy-irodaviy sifatlarni maqsadga muvofiq yo'naltirishga xizmat qiladi;

kompyuterlar oddiy holatlarda zarur qarorlarni dastur asosida qabul qiladi va ularni amalga oshiradi;

kompyuterlar bajarilayotgan amallarni nazorat qiladi va xatoga yo'l qo'yilgan holatlarda talabani ogohlantiradi;

yangi yechim ishlab chiqishda murakkab hisob ishlarini tez va aniq bajaradi.

Kishilarning tafakkuri yangi iqtisodiy munosabatlarni tiklashga, moddiy ne'matlar ishlab chiqarishga astoydil kirishib doimo yonib yashash hissi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim. Mana shunday ijobiy xislatlarga boy insonni tarbiyalash pedagogik soha mutaxassisleri, professional ta'lim muassasalarida oila va jamiyatning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ta'limdagi eng asosiy vazifa talabalar bilimni baholash, o'quv dasturlari hamda mavjud ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishdan iborat ekanini ta'kidlab: "Iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda professional ta'lim tizimi taraqqiyotning lokomotivi bo'lish o'rniga, zamon bilan hamqadam bo'lmayotgani achinarlidir. Mehnat bozoridagi tarkibiy o'zgarishlarga javob beradigan, yoshlarimizga kasb-hunar o'rgatadigan, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantiradigan tizim yo'q desak, bu ham achchiq haqiqat," – deb aytganlari bejiz emas. Shuningdek, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda mazkur "yo'l xarita"larida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Har bir filial, fakultet va qo'shma dasturlar bo'yicha tegishli huquqiy hujjatlarni sifatli ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliy ijrosini ta'minlash zarurligi ta'kidlandi.

Yoshlarimiz ongida yuksak ma'naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalqimiz farovonlik yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo'lish, o'zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodiy-amaliy faoliyat hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish kabi xislatlarni uyg'otish hozirgi davrning muhim vazifalaridan biri bo'lmoqda. Zamon talabiga mos kadr bo'lib etishi uchun faqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'lishning o'zi etarli emas, balki mustaqil va ijodiy fikrlash zarurati ham muhimdir.

Professional ta'limning asosiy maqsadi zamon talablariga javob bera oladigan malakali, raqobatbardosh, yuksak bilimli, professional ta'lim mutaxassisi talablariga o'zi tanlagan yo'nalishi yuzasidan talabga javob bera oladigan respublikaning ilm-fan, madaniyat, iqtisod, ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda o'z hissasini qo'shadigan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan yuqori salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashdir.

Demak, yuqoridagi uzluksiz ta'lim tamoyillaridan kelib chiqib, o'qituvchilar tomonidan alohida qobiliyatlarga ega bo'lgan iqtidorli va iste'dodli yoshlarni tanlash, ularni aniq fan yoki soha bo'yicha maqsadli tayyorlash va o'quv-usuliy jihatdan yo'naltirish zamonaviy ta'limning muhim shartlaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. To'raqulova M.Q. "Iqtidorli talabalar bilan ishlashda ta'lim turlari va vositalarini tanlash". Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 5-son, Buxoro 2019-yil. 104-108 b
2. Туракулова, Б. Б. (2022). Повышение квалификации персонала на основе интеграции технических подразделений и производственных предприятий. *Universum: психология и образование*, (10 (100)), 8-11.
3. Тухтаева, З. Ш., & Искандарова, Г. Б. (2014). Обеспечение межпредметной преемственности при обучении специальным предметам. *Молодой ученый*, (8), 882-884.
4. Zebo, T. X., & E'zoza, E. (2023). OLIY TA'LIMDA TALABALAR BILAN OLIB BORILADIGAN O'QUV-METODIK VA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(17), 489-496.
5. Туракулова, Б. Б. (2022). ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF HIGHER EDUCATION. In *Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (ИННОВАЦИИ-2022): сборник материалов Международной научно-технической конференции. Часть 1.*—М.: ФГБОУ ВО «РГУ им. (p. 154).